

KREATIVLIK SHAXSNI RIVOJLANTIRUVCHI KATEGORIYA SIFATIDA

Vahobova Shahzoda

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kreativlik va kreativ tafakkur tushunchasining falsafiy, psixologik va pedagogik talqini har tomonlama tahlil etilgan. Falsafiy yondashuvlarda kreativlik insonning borliqni anglash, erkin fikrlash va yangi mazmun yaratish qobiliyati sifatida izohlanadi. Psixologik manbalarda esa kreativ tafakkur shaxsning intellektual faoliyati, divergent fikrlash, tasavvur, motivatsiya va noodatiy yechimlarni ishlab chiqish jarayoni sifatida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Kreativ tafakkur, ijodkorlik, divergent fikrlash, falsafiy yondashuv, pedagogik qarashlar, innovatsion fikrlash, ijodiy muhit, intellektual rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье всесторонне проанализированы философские, психологические и педагогические подходы к пониманию понятий креативность и креативное мышление. В философских интерпретациях креативность рассматривается как способность человека осознавать окружающую реальность, свободно мыслить и создавать новое содержание. В психологических источниках креативное мышление трактуется как интеллектуальная деятельность личности, проявляющаяся в дивергентном мышлении, воображении, мотивации и процессе разработки нестандартных решений.*

Ключевые слова: *креативное мышление, творчество, дивергентное мышление, философский подход, педагогические взгляды, инновационное мышление, творческая среда, интеллектуальное развитие.*

Annotation: *This article presents a comprehensive analysis of the philosophical, psychological, and pedagogical interpretations of creativity and creative thinking. In philosophical approaches, creativity is described as an individual's ability to understand reality, think freely, and generate new meaning. In psychological literature, creative thinking is defined as an intellectual activity that involves divergent thinking, imagination, motivation, and the ability to produce unconventional solutions.*

Keywords: *creative thinking, creativity, divergent thinking, philosophical approach, pedagogical perspectives, innovative thinking, creative environment, intellectual development.*

Zamonaviy ta'lim jarayonida kreativ tafakkur o'quvchi shaxsining intellektual rivojlanishi, mustaqil qaror qabul qilishi va yangicha g'oyalar yaratish qobiliyatini

shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Kreativ tafakkur atamasi bir vaqtning o‘zida falsafa, psixologiya va pedagogika fanlarining asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylanib, har bir ilmiy maktab ushbu tushunchaga o‘ziga xos yondashuvni taklif etadi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab mazkur tushunchaning mazmuniga to‘xtalib o‘tishimiz kerak. Kreativlik (lot., ing. “create” - yaratish, “creative” - yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamiroda originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi.⁵⁵ Demakki, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama keng fikrlash bilan bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxs rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, inson tafakkuri va ma‘naviyatidan ajralmas hodisa sanaladi. Ushbu sifat faqat mavjud bilimlarning keng qamrovi bilan emas, balki yangicha fikrlashga intilish, barqaror stereotiplarni o‘zgartirish, muammolarga noodatiy yondashuv bilan namoyon bo‘ladi. Bilimlarni oddiy takrorlash ijodkorlikni shakllantirmaydi; kreativ yondashuv yangi g‘oya va fikrlardan boshlanadi. Ko‘pincha noodatiy yechim va fikrlar inson ongiga kutilmaganda keladi, buning uchun bir xillikdan voz kechish va fikrlash jarayoniga yangicha impuls berish zarurdir. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti ta‘lim tizimi rivoji bilan uzviy bog‘liq. Mamlakatimizda ham ta‘lim tizimi bosqichma-bosqich isloh qilinib, unda kreativlikka asoslangan yondashuvlar kuchaymoqda. O‘zbekiston ta‘limiga kreativ fikrlash konsepsiyasining kirib kelishi, uning xalqaro standartlarga moslashib borayotganini bildiradi.

Abu Nasr Farobiy shaxs shakllanishida jamiyatning o‘rni beqiyosligini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, inson yuksak barkamollikka erishish uchun ko‘plab ne‘matlarga muhtoj bo‘ladi va ularni yolg‘iz holda qo‘lga kiritmaydi. Faqat jamoaviy hamkorlik va o‘zaro yordam asosida inson o‘z tabiiy ehtiyojlarini qondirishi va komillikka erisha oladi. Farobiy insonning kamol topishi ilm, san‘at, axloqiy me‘yorlarni o‘zlashtirish hamda hayotiy tajribalar bilan boyitish orqali amalga oshirishini qayd etadi.

Ibn Sino esa, insonning bilim egallashi va olamni anglashida aql va ilm ustuvorligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, “Ruh - shamchiroqqa, bilim - ana shu shamchiroqdan taralayotgan yog‘duga, Allohning zakosi - moyga o‘xshaydi. Shamchiroq yonishdan

⁵⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J. I. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b. 216-b.

to'xtamas ekan - sen tiriksan. Agar u o'chsa - sen halok bo'lasan".⁵⁶ Abdulla Avloniy esa ilm, ijod, jismoniy va ma'naviy kamolotga erishishning asosiy omili mehnat va tirishqoqlik ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Bir ishga mashg'ul bo'lgan kishilar vaqtning o'tganini bilmas, yalqov kishilar uchun bir soat o'tkarmak qiyomatdan qiyindur. G'ayrat vujudimizga quvvati mas'ud va baxtiyor bo'lishimizga sababdur. Shuning uchun har birimiz sa'y qilub, o'z kuchimiz ila maishatimizga kerak bo'lgan narsalarni topub, boshqalarga muhtoj bo'lmay rohat-rohat yashamoq lozimdur. Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz, alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog'lidir. Harakatlik kishilar tezgina maqsadlariga yeturlar. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lub xorlikda qolurlar".⁵⁷ Kreativlik - individning yangi va original g'oyalar yaratishga tayyorlik darajasini ifodalaydigan sifat bo'lib, u tafakkur, muloqot, hissiyot va turli faoliyatlarda namoyon bo'ladi. U shaxsning muhim psixologik xususiyatlaridan biri hisoblanib, pedagogik faoliyatni takomillashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Ken Robinson kreativlikni "qiymatga ega bo'lgan original g'oyalar majmui" deb talqin qiladi. H. Gardner esa uni amaliy faoliyatda yangi va amaliy ahamiyatga ega natijani yaratish deb ta'riflaydi. T. Amabayl yondashuvida esa kreativlik fan yoki kasb yo'nalishida mustahkam bilim bilan noodatiy fikrlash qobiliyatining uyg'unlashuvi sifatida izohlanadi.

Kreativlik haqidagi qarashlarda sharq va g'arb olimlarining yondashuvlari turlicha: g'arb mutaxassislari uni yangilik yaratish, tasavvur va erkinlik bilan bog'lashsa, sharq olimlari uni ezgulikka asoslangan ijodiy qayta tug'ilish sifatida talqin etadilar. Ammo har ikkala yondashuv ham kreativlikni yuqori baholaydi.

Ko'pchilik o'zini kreativ emas deb hisoblaydi, buning sababi kreativlikning mazmunini to'liq anglamaslik va qanday fazilatlar orqali namoyon bo'lishini bilmaslikdir. Patti Drapeau o'qituvchilarga kreativlikni o'quv jarayonida qo'llashni tavsiya etadi va muhim jihat darslarni kreativ tarzda tashkil etish ekanligini ta'kidlaydi.

Nuaye Didye kreativ tafakkurni vaziyatga yangicha rakursdan yondashish, nostandart qarorlar ishlab chiqish va ko'p yondashuvli tahlil natijasida yangi g'oya yaratish sifatida ta'riflaydi. V.V. Moroz esa kreativlikni zamonaviy davrning tezkor o'zgarishlariga moslashish imkonini beruvchi intellektual kompetensiya deb hisoblaydi. K.A. Torshina fikriga ko'ra, kreativlik barcha insonlarda mavjud, ammo uning namoyon bo'lishi shaxsiy sifatlar va muhitga bog'liq.

⁵⁶ Abu Ali ibn Sino. Tayr qissasi. "Falsafiy qissalar" kitobidan. – Toshkent, O'zadabiynashr, 1963. – 65 b.

⁵⁷ Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 97 b.

J. Guilford o‘qituvchining kreativligini quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholaydi: muammoni aniqlash, g‘oya yaratish, uni takomillashtirish, originallik, detallash va noodatiy yechim topish. V.N. Drujinin esa kreativ mutaxassislarni mustaqil fikrlash, fantaziyaga ochiqlik, muammolarga konstruktiv yondashuv, estetik did, o‘ziga ishonch va hazil hisining mavjudligi bilan tavsiflaydi. Muni-Shteyn esa kreativlikni to‘rt tarkib - shaxs, jarayon, muhit va mahsulot asosida o‘rganadi.

Yuqoridagi olimlar nuqtayi nazarlarini jamlagan holda aytish mumkinki, kreativlik shaxsning fikrlash tarzida, muloqot jarayonida, emotsional reaksiyalarida hamda turli faoliyat turlarida namoyon bo‘ladigan individual sifatdir. Bu hodisa insonning umumiy shaxsiy qiyofasini yoki uning ayrim jihatlarini tavsiflab, ijodiy tafakkurning yuksak darajada rivojlanganligini aks ettiradi. Rivojlangan davlatlarda, ayniqsa ta‘lim sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar o‘zlarida kreativ kompetensiyalar mavjudligini va uning darajasini aniqlashga alohida e‘tibor qaratadilar. Bunda ular E.P. Torrens tomonidan taklif etilgan maxsus diagnostik metodikadan foydalanadilar. 1987-yilda ishlab chiqilgan ushbu test kreativ fikrlash darajasini baholashda asosiy mezon sifatida tezkor tahlil qilish, faollik, o‘ziga xos yondashuv (originallik) va g‘oyalarni takomillashtira olish kabi ko‘rsatkichlarga tayanadi. Tadqiqotchi bolaning javobi aynan shu mezonlarga javob bergan taqdirdagina uning kreativ salohiyati to‘g‘ri baholanishini qayd etadi.

Kreativlik inson mavjud bilimlarni qayta ishlash, ularni yangi kontekstda kombinatsiya qilish, shuningdek mutlaqo yangi, kutilmagan model yoki yechim yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Kreativ psixologiya sohasi asoschilaridan biri bo‘lgan Pol Torrens kreativlikning to‘rtta asosiy malakasini ajratib ko‘rsatgan bo‘lib, bu malakalar ijodiy tafakkurning negizini tashkil etadi.

Falsafiy tafakkur tarixida esa ijodiy fikr insonning borliqni anglash va uni o‘zgartirishga qaratilgan ichki ruhiy ehtiyoji sifatida ko‘rilgan.

1. Antik falsafa (Platon, Aristotel) ijodiy fikrlashni “ideasidan yangi shakl yaratish” jarayoni deb talqin qiladi. Aristotel ijodiy fikrni aqlning oliy faoliyati sifatida baholagan.

2. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Ibn Sino) ijodiy tafakkurni tafakkur jarayonining eng yuksak ko‘rinishi deb bilishgan. Ular insonning bilimga chanqoqligi ijodiy natijaga olib kelishini ta’kidlagan.

3. Yangi davr falsafasi (Kant, Bergson) kreativlikni insonning subyektiv tasavvur kuchi, erkin fantaziya mahsuli sifatida ko‘rgan. Bergson ijodiylikni intuitsiya bilan bog‘laydi.

4. Dialektik falsafa kreativ fikrlashni qarama-qarshiliklarning yechimidan yangi sifat yaratish jarayoni sifatida talqin qiladi.

Psixologiya kreativlikni inson intellektining noyob ko'rinishi sifatida o'rganadi.

1. G. G'uilford kreativ fikrlashni divergent tafakkur deb atab, muammoni bir nechta yechim orqali hal qilish qobiliyati sifatida ta'riflagan.

2. E. Torrens kreativlikning diagnostik modeli (moslashuvchanlik, ravonlik, o'ziga xoslik, elaboratsiya)ni ishlab chiqqan.

3. Zamonaviy kognitiv psixologiya kreativ tafakkurni analitik fikrlash, assotsiativ bog'lanishlar, tasavvur, motivatsiya va qiziqish bilan bog'laydi.

4. Bolalarda kreativlikning rivojlanishi psixologiya fanida tabiiy (tug'ma) xususiyatlar va muhit omillari ta'siri bilan izohlanadi.

3. Pedagogik manbalarda kreativ tafakkur talqini

Pedagogika fanida kreativ tafakkur o'quvchining o'quv-bilish faoliyatidagi faolligi, mustaqilligi va ijodkorlik darajasiga bog'liq holda o'rganiladi.

1. Pedagogik yondashuvda kreativ tafakkur - muammoni yangicha ko'ra olish, mustaqil yechimlar topa bilish, tajribalarni tahlil qila olish, innovatsion fikr yuritish demakdir.

2. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarida (muammoli ta'lim, loyihaviy metod, TRIZ, kreatologiya) kreativlik o'quvchi faoliyatining markazida turadi.

3. Pedagogik manbalarda kreativ tafakkur quyidagi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi:

- mustaqil fikrlash;
- original g'oya yaratish;
- o'quv topshiriqlariga noodatiy yondashuv;
- nazariy bilimlarni o'quv amaliyotida qo'llay olish.

4. O'qituvchining asosiy vazifasi - o'quvchi shaxsida kreativ muhit yaratish, ochiq fikrlashni qo'llab-quvvatlash va ijodkorlikka undovchi ta'lim metodlarini qo'llashdir.

Xulosa

Yuqoridagi fikr va mulohazalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik shaxsning tug'ma yoki tasodifiy shakllanadigan sifati emas, balki maqsadli ta'lim, tarbiya, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda ijodiy muhit orqali rivojlantiriladigan murakkab jarayondir. Kreativ tafakkur insonning o'ylash, his qilish, muloqot qilish, faoliyat yuritish texnikalarida o'z aksini topadi va shaxsning yangicha, noodatiy, samarali yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini belgilaydi. Xorij tajribasida, xususan E.P. Torrens tomonidan ishlab chiqilgan kreativlikni baholash testi, ijodiy imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirishda samarali vosita sifatida qo'llanilishi ta'lim jarayonida kreativ kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, kreativlikni shakllantirish jarayonida o'quvchi yoki bolaga mustaqil fikrlash, tajriba qilish, xato qilishdan qo'rqqanlik, ochiq muloqotda bo'lish, innovatsion vazifalar bilan shug'ullanish imkoniyatlarini yaratish muhimdir. Ta'lim muassasalari,

pedagoglar va ota-onalar o‘zaro hamkorlikda ijodiy muhit tashkil qilgandagina kreativ tafakkur ijtimoiy-madaniy jihatdan qadriyatga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni. O‘RQ-637-son. 23.09.2020. – T., 2020. – 40 b. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2017-yil 20-apreldagi PQ 2909-son Qarori.
5. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas’ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a’zosi M.M.Xayrullayev. – Toshkent, Fan. 1975, 71–72-b.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. - 122 b.
7. Abu Ali ibn Sino. Tayr qissasi. “Falsafiy qissalar” kitobidan. – Toshkent, O‘zadabiynashr, 1963. – 65 b.
8. Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 97 b.
9. B.Xodjayev “ Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyati”. Darslik.– T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
10. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligi omili: monografiyam /O.Musurmonova. – Toshkent : Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 184b.
11. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iste’dod” jamg‘armasi. Toshkent, 2008 yil. – 180 bet.
12. Munisa. M. magistrlik dissertatsiyasi.
13. www.edu.uz
14. www.ziynet.uz